

MINTAQALARDA DORIVOR O‘SIMLIKLAR YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna,

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: baxriddinovayulduz7@gmail.com

Tel: +998944620251

Annotatsiya: Maqolada dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, mintaqalarda dorivor o‘simlik yetishtirish samaradorlik ko‘rsatkichlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, iqtisodiy-statistik usullar.

Kirish

O‘tmishda dorivor o‘simliklar inson va hayvonlar kasalliklarini davolash, salomatlik va farovonlikni yaxshilash uchun ishlatilgan. Dorivor o‘simliklar hali ham an‘anaviy yoki zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimlarining asosini tashkil qiladi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan mamlakatlarda aholi salomatligini yaxshilashda foydalaniladi. Dorivor o‘simliklar an‘anaviy tibbiyot mahalliy va jahon bozorlari talablarini qondirishda muhim o‘rin egallaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tashkiloti (FAO) ma‘lumotlariga ko‘ra “...so‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda an‘anaviy tibbiyotdan foydalanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada kamayib, Germaniyada 40-50 foizni, AQShda 42 foizni, Avstraliyada 48 foizni va Fransiyada 49 foizni tashkil qilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining 80 foizi sog‘liqni saqlash ehtiyojlari uchun asosan o‘simlik preparatlariga tayanadi va JSST kelgusi o‘n yilliklarda dunyo aholisining shunga o‘xshash foizi o‘simlik asosidagi dori-darmonlarga ishonishi mumkin”⁴²

Jahonda dorivor o‘simlik mahsulotlari bozorlarida kuzatilayotgan bu kabi o‘shish tendensiyalari butun dunyoda ushbu mahsulotlarga, shuningdek, an‘anaviy sog‘liqni saqlash tizimlariga yuqori darajada qiziqish mavjudligini tasdiqlaydi. Bu kabi holatlar natijasida qishloq aholisi uchun daromad keltiruvchi yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Jahonda turli kasalliklar sonining ortib borayotgan hozirgi bosqichida, dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish borgan sari muhim bo‘lib, dunyoda asosiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bularning yechimi mamlakatlarda barqarorlik va farovonlik muhitini yaratish bilan belgilanadi. Dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish, aholi tabiiy dori vositalari bilan ta‘minlashni tizimli amalga oshirish iqtisodiyotda yetarlicha e‘tiborga ega bo‘lishiga qaramasdan, ushbu inson sog‘ligi bilan bog‘liq muammolarning hali ham munozarali ekanligi aytiladi.

⁴²<https://www.fao.org/4/af285e/af285e00.htm>

Tadqiqot usullari

Tadqiqot o'tkazish va taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish uchun quyidagi iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan: monografik; statistik usullar; mantiqiy yondashuv, solishtirma tahlil.

Tadqiqot natijalari

Qishloq hududlarida yetishtirilgan dorivor o'simliklarni yig'ish va sotish qishloq aholisi uchun qo'shimcha pul manbasini ta'minlaydi. Biroq, yetishtirilgan dorivor mahsulotlar yakuniy mahsulotda juda yuqori qiymatga ega bo'lishi mumkinligiga qaramay, xo'jalik toifalar odatda yakuniy qiymatning faqat kichik bir qismini oladi. Sababi uni xaridorlar xohlagan shaklda bozorga chiqara olmaganlari uchun.

Shu sababdan ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda mavjud dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida mexanizmlarini yaratishimiz lozim”⁴³ deya ta'kidlab o'tgani bu masalani muhim ekanligini ko'rsatadi.

E'tirof etish kerakki, mintaqalarda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash jaryonlarini zamonaviy tadqiqodlar asosida o'rganish, ularga rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf qilish masalalari iqtisodiy-statistik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun mintaqalarda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash jarayonida mavjud bo'lgan nazariy va amaliy muammolarni bartaraf qilish va iqtisodiy-statistik jihatdan baholash dolzarb masalalardan.

O'zbekistonda hozirda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarini samarali tashkil qilishda davlat tomonidan keng miqyosli qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirildi. Ayni vaqtda Respublika hududida 4230 turdagi o'simliklar tarqalgan bo'lib, ular 138 oilani va 1028 avlodni tashkil qiladi. Ushbu 4230 turdagi o'simliklarning 577 turi dorivor hisoblanadi. Mamlakatda dorivor o'simliklar eksport salohiyatini oshirish, hosildorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik toifalarini rag'batlantirish va rivojlantirishni tashkil etishga yo'naltirilgan bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Bu kabi amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4670-son qarori qabul qilindi⁴⁴.


Ushbu qarorda mamlakatda dorivor o'simliklar yetishtirish jarayonlarini yanada rivojlantirish, asosiy turdagi dorivor o'simliklar turini yetishtirishga

⁴³<https://qalampir.uz/uz/news/prezident-yevvoyi-usimliklar-tugrisidagi-k-arorni-imzoladi-17247>

⁴⁴www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4670-son qarori.

ixtisoslashtiriladigan va ekish tavsiya etiladigan hududlarni aniqlash, ekinning tuproq-iqlim sharoitiga talablarini o'rganish kabi ustuvor vazifalar belgilanadi.

Mazkur qarorning ijrosi natijasida mamlakatda aholining sog'lom turmush tarzini yaxshilash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish, qishloq xo'jaligi tizimini yanada takomillashtirish hamda sohani rivojlantirishda hududlarga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligini ko'rish mumkin. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 124-son qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzurida davlat muassasasi shaklidagi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyatiga bir qator vazifalar berilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzuridagi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyatining vazifa va funksiyalari⁴⁵

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzuridagi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mazkur qonun hujjatlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda dorivor o‘simliklar yetishtirish, qishloq aholisining daromadlarini oshirish va mamlakatda sog‘lom turmush tarzini yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bu kabi amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat natijasida mamlakatimiz aholisining so‘lom turmush sifati yaxshilanmoqda va dorivor o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshmoqda. Birgina 2022-yilda mamlakatda yetishtirilgan dorivor o‘simliklar eksporti hisobidan 60,024 mln dollar miqdorida respublikaga daromad keltirildi.

Fikrimizcha, dorivor o‘simlik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlatning nafaqat qishloq xo‘jaligi sohasidagi, balki tibbiyot va iqtisodiy sohasidagi faoliyatlari bilan ham bevosita bog‘liq.

Tahlillarimizda keltirib o‘tilgan chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirilishi - mamlakatda dorivor o‘simlik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik toifalarini faqat qo‘llab-quvvatlashni emas, balki ushbu tarmoqni xalqaro darajadagi bozorga olib chiqish imkoniyatini ham beradi.

Yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish orqali farmatseftika sanoati samaradorligini oshirish bilan bog‘liq asosiy faoliyatlar tartibga keltirilgan. Albatta, bu soha faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini to‘g‘ri tashkil qilish hozirda juda muhim.

Ilmiy adabiyotlarda dorivor o‘simlik mahsulotlarini yetishtirish orqali farmatseftika sanoatini rivojlantirish masalalari ko‘pchilik xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ilmiy asoslanib, iqtisodiy-statistik jihatidan tahlil qilingan. Jumladan, N. Varshney, D. Jain, Dr. Pracheta, D. Mitra, M.Fahim, N.Nasim, I.S.Sandeep, S.Mohanty, O.A.Melnikova, M.Y.Melnikov, E.B.Karachevskaya, S.S.G‘ulomov, O.A.Abdug‘aniyev, N.R.Xo‘jaqulovalar ilmiy asarlarida mazkur sohaga e‘tibor qaratganlar.

Shuni aytish kerakki, oldingi va hozirgi davrda dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash masalalarini o‘rganish dolzarb masala bo‘lgan. Mazkur tadqiqotlar mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash orqali farmatseftika sanoatini rivojlantirishning mazmun-mohiyati va uning asosiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Bir qancha iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash mexanizmlarini takomillashtirishning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan uzviy bog‘liqda ko‘rib chiqqanligini ham uchratish mumkin. Masalan, akademik S.S.G‘ulomov tadqiqotlarida dorivor qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining inson salomatligiga ta‘siriga alohida e‘tibor qaratilib, bu holatni mintaqalarda innovatsiyalarni ahamiyatini oshirish orqali ta‘minlash mumkin⁴⁶ degan yondashuvni ilgari suradi. Shuningdek, O‘.Axmedov ham mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish masalalarini o‘rganib chiqqan bo‘lib, uning fikricha, O‘zbekiston Respublikasida farmatseftika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi dorivor

⁴⁶ S.S.G‘ulomov, D.S.Almatova // “Mintaqalar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda innovatsiyalarning roli.” // O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlorida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-qism).T.: TDAU.- 2014y., 15-aprel. 24-26 betlar.

o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan talabni keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan talabini, faqatgina, hududiy darajada dorivor o‘simliklar yetishtirish orqaligina qondirish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan⁴⁷.

O.R.Fayziyev esa, o‘z asarida asosan hududlarda dorivor va foydali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga e‘tibor qaratadi. Shuningdek, ushbu ilmiy ishda qishloq xo‘jaligi sohasida dorivor o‘simliklarni yetishtirish samaradorligini baholaydigan asosiy omillarning ta‘riflari keltirilgan⁴⁸.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan yana biri O.A.Abdug‘aniyev ilmiy ishlarida asosan iste‘mol savatini optimallashtirish masallariga e‘tibor qaratgan. Uning fikricha, mintaqalarda iste‘mol savatini optimallashtirish iqtisodiy va tibbiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli farmatsevtika sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlilini ekonometrik modellar yordamida amalga oshirish bugungi kunning juda muhim masalaridan hisoblanadi⁴⁹. N.R.Xo‘jaqulova ilmiy tadqiqot ishlarida asosan dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish masallariga e‘tibor qaratgan. Uning fikricha, mintaqalarda «Dorivor o‘simlikchilik klaster-kooperatsiyasi»ni tashkil etish zarur. Buning natijasi dorivor o‘simliklarni yetishtirish, quritish, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot sotishni yagona tizimga birlashtiradi⁵⁰.

Xorijlik olimlardan Muhammad Fahim o‘zining “Role of medicinal plant in human health disease” nomli maqolasida aholi salomatligida dorivor o‘simliklarning o‘rnini juda muhim ekanligini yoritib bergan. Mazkur maqolada mintaqalarda aholi salomatligini yaxshilash uchun dorivor o‘simliklar va farmaseftikaning sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlili amalga oshiriladi⁵¹.

N.Varshney, D.Jain, Dr.Pracheta, D.Mitralarning “Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview” nomli asarida farmaseftika sanoati nafaqat tibbiyotda balki, kosmetika va oziq-ovqat sanoatini tashkil etishini ham o‘z ichiga olishini keltirib otgan. Ularning fikricha, aholining sog‘ligini mustahkamlashda eng asosiy tabiiy doridarmonlar yetishmasligi muammosini hal etishda dorivor o‘simliklar bilan ta‘minlanish darajasi muhim vosita hisoblanadi⁵².

Noohi Nasim, Inavolu Sriram Sandeep va Sujata Mohantylar esa tabiiy o‘simliklardan foydalanib dori-darmon mahsulotlarini ishlab chiqarishning bugungi kundagi istiqbollari va yondashuvlari, mintaqalarning tabiiy iqlim sharoiti, geografik

⁴⁷ O‘.Axmedov, A.Ergashev. // “Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya”. // Darslik. SHAFOAT NUR FAYZ., 2020 yil. 6-20 betlar.

⁴⁸ O.R.Fayziyev // “Moyli ekinlar donini yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish” nomli i.f.f.d. dissertatsiyasi. //T.,ToshDAU, 2021y.

⁴⁹O.A.Abdug‘aniyev. Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini modellashtirish // Dissertatsiya (RhD). Toshkent 2020 y.

⁵⁰ N.R.Xo‘jaqulova. // Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. // PhD. Dissertatsiya. Qarshi 2023 y.

⁵¹Mohammed Faheem and Dr. Sumer Singh. Role of medicinal plants in human health disease. International Journal of Current Research Vol. 12, Issue, 11, pp.14695-14697, November, 2020. DOI: <https://doi.org/10.24941/ijcr>.

⁵²Nidhi Varshney, Divya Jain, Pracheta Janmeda, and Debasis Mitra. Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview // Published online 2021 Sep 18.


joylashuvlaridan kelib chiqqan holda dorivor o'simliklarni yetishtirishga mo'ljallangan ekin maydonlarini masalalariga to'xtalib o'tgan⁵³.

Rossiyalik olimlardan O.A.Melnikova va M.Y.Melnikovlar o'z ilmiy asarlarida MDH mamlakatlari misolida yuqumli kasalliklarni davolashda farmasevtikaning o'rni bo'yicha izlanishlar olib borgan. Unda mintaqalarda dorivor o'simliklarni yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, farmasevtika sohasiga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari tadqiq etilgan⁵⁴.

Belarusiyalik tadqiqotchi E.B.Karachevskaya ilmiy asarlarida Belarus respublikasi misolida dorivor o'simliklarni ekishning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yoritib bergan. Uning fikricha, mintaqalarda dorivor o'simliklarni yetishtiruvchilar bilan ularni saqlash, tashish va uni qayta ishlovchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar va sohaning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda eng muhim masala hisoblanadi⁵⁵.

Tahlil natijalari ko'rsatmoqdaki, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni tashkil qilishga oid ilmiy asarlarini o'rganish ushbu soha faoliyatining murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda mintaqalarda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni intensiv rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.



2-rasm. Mintaqalarda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni intensiv rivojlantirish yo'nalishlari⁵⁶

⁵³Noohi Nasim, Inavolu Sriram Sandeep, and Sujata Mohanty. Plant-derived natural products for drug discovery: current approaches and prospects. Published online 2022 Oct 18. doi: 10.1007/s13237-022-00405-3.

⁵⁴O.A.Мельникова, М.Ю.Мельников. Роль и задачи оказания фармацевтической помощи при возникновении инфекционных заболеваний. Научно-практический рецензируемый журнал "Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики" 2021 г., № 4 Scientific journal "Current problems of health care and medical statistics" 2021 г., № 4.

⁵⁵E.B.Карачевская. Экономика и парадигма нового времени Выпуск №3., Экономическая эффективность выращивания лекарственных трав в условиях экономики республики Беларусь 2019 г.

⁵⁶Muallif ishlanmasi

Tahlillar natijasi ko‘rsatmoqdaki, mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari ko‘plab omillarni, jumladan, iqtisodiy sharoitlar, iqlim, tuproq, va resurslar mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bu kabi omillarni samarali tashkil qilish dorivor o‘simliklarni barqaror tarzda yetishtirishga yordam beradi. Mintaqalarda dorivor o‘simliklarni yetishtirishda ekologik, agrotexnik, iqtisodiy va marketing, biodiversifikatsiya va diversifikatsiya, biotexnologiya va innovatsion kabi asosiy yo‘nalishlar mavjud.

Ekologik yondashuv - bu yerda tabiiy sharoitlar (iqlim, tuproq turi, suv resurslari) va ularning dorivor o‘simliklarning o‘shishiga ta’siri hisobga olinadi. Bunda dorivor o‘simliklarning muvaffaqiyatli o‘shishi uchun ekologik balansni saqlash zarur.

Agrotexnik yondashuv - bu nazariya o‘simliklarning o‘shishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tuproqni tayyorlash; sug‘orish va drenaj; xasharotlar va kasalliklar bilan kurashish va boshqalar.

Iqtisodiy va marketing yondashuvlari - bu dorivor o‘simliklarni yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash uchun tahlil va rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy nazariyalar va marketing tamoyillari dorivor o‘simliklarni yetishtirishning rentabelligini oshirishga bozor tahlili, narx va rentabellik, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish ko‘rsatkichlari orqali yordam beradi.

Biodiversifikatsiya va diversifikatsiya – bu iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun, turli xil dorivor o‘simliklarni bir joyda yetishtirish, bozorning o‘zgaruvchan talablariga moslashish va tabiat resurslaridan optimal foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Biotexnologiya va innovatsion yondashuvlar – bu dorivor o‘simliklarni yetishtirishda biotexnologiyalardan foydalanish, shu jumladan, genetik o‘zgartirishlar va seleksiya usullari, ularning sifatini yaxshilash va kasalliklarga chidamliligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biotexnologik yondashuvlar o‘simliklarni tezroq rivojlantirish va ko‘proq hosil olish imkoniyatlarini yaratadi.

Davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash – bu yondashuvda mamlakatlarda, bu sohani rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, subsidiyalar va innovatsiyalarni joriy etish nazarda turiladi. Davlat tomonidan qabul qilingan qishloq xo‘jaligiga oid strategiyalar, subsidiyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari va eksportni rag‘batlantirish orqali dorivor o‘simliklar yetishtirishni yanada samarali qilish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mintaqalarda dorivor o‘simliklarni yetishtirishning muvaffaqiyati uchun barcha bu omillarni uyg‘unlashtirib, o‘zaro bog‘liq ravishda ishlash zarur. Shuningdek, dorivor o‘simliklar bozorini, resurslarni samarali taqsimlashni, ekologik barqarorlikni ta’minlashni va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni ta’minlash o‘simliklarning rentabelligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Fikrimizcha, mamlakatda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab asosan, mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirilish kerak. Shu sababli, mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash tizimi mukammal o‘rganilib, o‘simlik

dunyasini muhofaza qilish va undan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Tanlangan maqsadga ko‘ra, mintaqaning mahalliy dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari hamda tashqi muhit o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro bog‘langan holda bo‘lishi shart.

Hozirgi vaqtda dunyoda tabiiy holda o‘sayotgan mahalliy dorivor o‘simliklarni aksariyat qismi insonlarning salbiy ta‘siri natijasida kamayib bormoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida mahalliy dorivor o‘simliklar turlarini ko‘paytirish hamda ularni mamlakatimizning tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun dorivor o‘simliklar yetishtirish bilan shug‘ullanadigan fermer va ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil qilish va ko‘paytirish zarur. Mintaqalarda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash tizimini, uning barcha bosqichlarida murakkab-dinamik tizim sifatida o‘rganish so‘ng faoliyatni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori.

2. S.S.G‘ulomov, D.S.Almatova // “Mintaqalar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda innovatsiyalarning roli.” // O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlorida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-qism).T.: TDAU.- 2014y., 15-aprel. 24-26 betlar.

3. O‘.Axmedov, A.Ergashev. // “Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya”. // Darslik. SHAFOAT NUR FAYZ., 2020 yil. 6-20 betlar.

4. O.R.Fayziyev // “Moyli ekinlar donini yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish” nomli i.f.f.d. dissertatsiyasi. //T.,ToshDAU, 2021y.

5. O.A.Abdug‘aniyev. Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini modellashtirish // Dissertatsiya (RhD). Toshkent 2020 y.

6. N.R.Xo‘jaqulova. // Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. // PhD. Dissertatsiya. Qarshi 2023 y.

7. Mohammed Faheem and Dr. Sumer Singh. Role of medicinal plants in human health disease. International Journal of Current Research Vol. 12, Issue, 11, pp.14695-14697, November, 2020. DOI: <https://doi.org/10.24941/ijcr>.

8. Nidhi Varshney, Divya Jain, Pracheta Janmeda, and Debasis Mitra. Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview // Published online 2021 Sep 18.

9. Noohi Nasim, Inavolu Sriram Sandeep, and Sujata Mohanty. Plant-derived natural products for drug discovery: current approaches and prospects. Published online 2022 Oct 18. doi: 10.1007/s13237-022-00405-3.

10. О.А.Мельникова, М.Ю.Мельников. Роль и задачи оказания фармацевтической помощи при возникновении инфекционных заболеваний. Научно-практический рецензируемый журнал “Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики” 2021 г., № 4 Scientific journal “Current problems of health care and medical statistics” 2021 г., № 4.

11. Е.В.Карачевская. Экономика и парадигма нового времени Выпуск №3., Экономическая эффективность выращивания лекарственных трав в условиях экономики республики Беларусь 2019 г.